

Jarqo'rg'on tumanining ikki mahallasida topshiriqlar ijrosi o'rganildi



Jarqo'rg'on tumaniga avvalgi tashriflarda "Yangiobod" va "Surxon sohili" mahallalarida infratuzilmani yaxshilash, ko'p qavatli turar joylarni ta'mirlash, bolalar maydonchalari va yo'laklar qurish va obodonlashtirish ishlarini olib borish bo'yicha vazifalarni belgilab berilgan edi.

Bugun viloyat hokimi ushbu mahallalarda bo'lib, topshiriqqa asosan qilingan ishlar va amalga oshirilayotgan tadbirlar bilan tanishdi. Mazkur ikki mahallada jami 48 ta ko'p qavatli turar joylarning fasad qismini ta'mirlash, 54 ta asosiy kirish yo'laklariga kodli temir eshiklar o'rnatish, 6 ta bolalar maydonchasi qurish, 1 270 pagona metr irrigatsiya tarmoqlarini ta'mirlash, 1 825 metr kvadrat yo'laklarni betonlash va boshqa tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat rahbari olib borilayotgan ishlarni ko'zdan kechirib, ishlarni tizimli tashkil etish, tadbirlarni bosqichma-bosqich olib borish, qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini sifatli amalga oshirish topshirig'ini berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)